

ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSINING BUGUNGI KUN ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Akbarov Sherzodbek Asqarali o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo'nalishi talabasi.

(Ilmiy rahbar: “Siyosatshunoslik”

kafedrasi dotsenti Z.E.Nishanbaeva)

sherzodbekakbarov003@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Zahriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi va bugungi kun ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Boburning hozirgi davr ilm-fanidagi qarashlari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Boburnoma, harbiy, elchilik, sarkarda, ilm-fan, ilmiy meros, tafakkur, ruboiy, g'azal, sharqona odobu axloq.*

Аннотация: В статье раскрывается научное наследие Захриддина Мухаммеда Бабура и его роль в развитии науки сегодня. В статье также рассматриваются взгляды Бабура на науку того времени.

Ключевые слова: *Баburnама, военный, посольский, полководец, наука, научное наследие, созерцание, рубаи, газель, восточная этика и мораль.*

Abstract: The article reveals the scientific heritage of Zahriddin Muhammad Babur and his place in the development of Science today. The paper also examined Beaver's views in current-day science.

Keywords: *Beaver, military, messenger, warlord, science, scientific heritage, thinking, ruboi, ghazal, oriental etiquette.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining buyuk allomasi sifatida asrda mavjud bo'lgan barcha bilimlarni chuqur o'rganib, o'zlashtirgan. Undagi bu bilim astasekin asarlariga o'tib bordi. Xususan, muallifning o'lmas “Boburnoma” haqidagi keng bilimi o'zining to'la ifodasini topgan. Natijada qomusiy asar – “Boburnoma” yaratildi [1,34-b.]. Bu xazina topilgan paytdan boshlab unga va uning muallifiga katta shuhrat keltirdi va bu an'ana hozirgacha davom etmoqda. “Boburnoma” va uning muallifi bu sharafiga to'la loyiqdir. Chunki “Boburnoma” badiiy, tarix, xotira asari sifatida adabiyot va tarixchi, tilshunos va tarixchi, tabiatshunos va geograf olim, shuningdek, qimmatli ma'lumotlar bera oladigan qator mutaxassislarning bebaho xazinasidir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda yashab, turli tillarda so'zlashgan sharqshunos olimlarning e'tiborini tortdi va butun dunyoda aks-sado berdi. “Boburnoma” o'zbek adabiyotshunoslari uchun ham qimmatli e'tibor manbai hisoblanadi. “Boburnoma” XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida qo'sh tilli adabiyotni o'rganishda muhim

manbaa sifatida maxsus tadqiqotlar uchun asos bo'lmagan bo'lsada, bu sifat professor A. S. Semyonov, akademiklar V. J. Zodov, B. N. Valixojaev, shoir va olim Maqsud Shayxzoda, taniqli adabiyotshunos N. M. Mallayevlarning maxsus risolalari, maqolalari va darsliklarida qayd etilgan.[2,51-b.].

Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish;

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan yuqori sifatli media mahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilish;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari, O'zbek milliy madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini keng o'rganish va targ'ib qilishga bag'ishlangan ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etish.

Madaniyat va turizm vazirligi Tashkiliy qo'mitaning ishchi organi etib belgilansin va mazkur qarorda belgilangan vazifalar bo'yicha vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirib borsin.

Andijon viloyati hokimligi tomonidan Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda Andijon shahrida "Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferensiya;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman; Toshkent shahar hokimligi, Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan Toshkent shahrida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag'ishlangan adabiy-badiiy anjuman; Madaniy meros agentligi va Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Andijon shahridagi "Bobur va jahon madaniyati" kitob muzeyida Boburning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan asarlarning qo'lyozma va nashr nusxalarining ko'rgazmasi; Badiiy akademiya va "Hunarmand" uyushmasi tomonidan mavzuga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari, miniatyuralar, xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmalari yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlasin. Zahiriddin Muhammad Boburning ibratli hayoti va boy merosini aholi orasida keng targ'ib qilish maqsadida: Madaniyat va turizm vazirligi Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda: "Bobur merosi" xalqaro sayyohlik targ'ibot dasturini amalga oshirilishi.

2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va asarlari asosida yangi spektakllar yaratish, shoir gʻazallari bilan ijro etiladigan eng yaxshi qoʻshiqlar tanlovlari hamda “Nazm va navo” maqom kechalarini tashkil etishi belgilandi. Davlat buyurtmasi asosida Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik davriga bagʻishlab suratga olinayotgan “Yoʻlbarsning tugʻilishi” badiiy filmini yakuniga yetkazish uchun yana mukammal ishlash, tomoshabinga yetkazib bera oladigan darajada ishlash, yoshlarni jasur, mard, vatanga muhabbat, fidoyilik ruhida tarbiyalash lozimligi haqida bir qancha takliflar berildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir “Bobur ensiklopediyasi”ning toʻldirilgan uchinchi nashri, “Bobur” kitob-albomi, shuningdek, Bobur asarlari lugʻati, Bobur devonining mukammal nashrini; “Boburnoma” asarining zamonaviy oʻzbek va qoraqalpoq tillariga tabdilini yaratish; “Boburga armugʻon” rukni ostida shoir asarlari, uning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy va ommabop kitoblar turkumini tayyorlash va chop qilish choralari koʻrish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda: ikki oy muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy merosini tadqiq etish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovini eʼlon qilishi yoshlarimizni yanada xursand qildi.

Bobur Mirzo hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan asarlarning oʻzbek tilidan xorijiy tillarga hamda xorijiy tillardan oʻzbek tiliga bosqichma-bosqich tarjima qilinishi va chop etilishini taʼminlasin.

2023-2024 oʻquv yilidan boshlab oliy taʼlim muassasalari talabalari uchun tarix va geografiya yoʻnalishlarida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi taʼsis etilsishi. Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda mazkur davlat stipendiyasini tayinlash tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlasin. Biz yoshlarga boʻlgan eʼtibor shuningdek yanada sifatli taʼlim olishimiz uchun qilinayotgan shartsharoitlar meni hamda butun Oʻzbekiston yoshlarini oʻziga boʻlgan ishonchini yanada oshirish imkonini berdi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Jahon tarixida oʻchmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda maʼlum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida oʻringa ega. Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur oʻrganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targʻib qilish borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, shoir tugʻilgan kun 14-fevral sanasi har yili mamlakatimiz boʻylab adabiyot va ilm-maʼrifat bayrami sifatida

nishonlanmoqda. Boburshunoslik sohasida ko‘plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o‘tkazilmoqda. Keyingi yillarda Toshkent va Andijon shaharlarida Bobur Mirzoning muazzam haykallari o‘rnatilgani, uning tug‘ilib o‘sgan yurti Andijon shahrida Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyi faoliyat ko‘rsatayotgani, “Bobur ensiklopediyasi”, “Bobur kulliyoti”, “Babur. Baburidi. Bibliografiya” deb nomlangan salmoqli asarlarning nashrdan chiqarilgani, “Bobur va dunyo” jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida e‘tirof etildi.

Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga, Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta‘sirini inobatga olib, Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniyat va turizm vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda jamoatchilik vakillarining 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullandi.

Inson va sarkarda sifatidagi Boburning fazilat va iqtidoriga yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, u “qor tepib yo‘l ochish” vaqtida sovuq qotgan askarlarini o‘zining shaxsiy jasorati bilan nafaqat ruhlantirishga balki, ularni so‘zsiz qoyil qoldirishga ham muvaffaq bo‘lgan edi[3,146-b.]. Ya‘ni Dehli Universiteti proffesori Faruqiy o‘z rasmiy ma‘ruzasida qayd etgan voqeaga ko‘ra, “Bobur atrofidagi sovuq qotgan sarbozlari ko‘zi oldida yo‘l ustidagi suvi muzlagan ko‘lga tushib cho‘milishga ahd qilgan va buni uddalagan”[3,233-b.] Shimoliy Hindistonda o‘z hukmronligini o‘rnatgan Bobur barcha viloyatlarga elchilar yuborib, quyidagilarni xabar qilgan. “Kimdakim agar bizga kelib mulozamat qilsa, har tomonlama ra‘iyyat qilamiz, agar ular ichida ota-bobolarimizga xizmat qilgan kishilar bo‘lsa katta mukofotga sazovor bo‘ladilar. Sohibqiron avlodidan bo‘lgan har bir kishi bizning dargohimizga qaytib kelsinlar” ma‘nosida buyruq bergan va unda: “Xudo bizga Hindiston mamlakatini ato qildi, kelsinlar, to bu davlatni birga suraylik” deyilgan[3,128-b.]. Ko‘rinib turibdiki, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z ajdodlariga hamda ilm ahliga marhamatli va saxovatli hukmdor bo‘lgan. Shuningdek, Boburning marhamatidan unga dushman nazari ila qarovchilar ham bebahra qolmagan. Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilib turgan lo‘diylar hukmdori, Panipat jangidagi Boburning

joniga qasd qilgan raqibi Ibrohim Lo‘diyning ota-onasiga qilgan saxovati haqida “Boburnoma”da shunday deyiladi: “Ibrohimning otasiga yetti laklik pargana naqd inoyat bo‘ldi. Beklariga har qaysisiga parganalar berildi. Ibrohimning otasini bayrilari bila chaqirib, Agradan bir kuro‘h suv quyi yurt berildi”[4,231-b]. Zahiriddin Muhammad Bobur bobokaloni A.Temur singari davlat ishlarida vujudga kelgan murakkab vaziyatlardan aqlli tadbirlar ila chiqib ketganligiga o‘sha davr manbalaridagi ayrim voqealar orqali guvoh bo‘lamiz. Masalan, Panipat jangidan so‘ng Hindistonning eng yirik, kuchli va tajribali rojalardan Rano Sango bilan bo‘lajak qonli urush oldidagi tahlikali vaziyat haqida Gulbadanbegimning “Xumoyunnoma”sida quyidagi voqea bayoni keltiriladi.

“Sulton Ibrohim fathidan so‘ng bir yil o‘tgach, Rano Hindiston tomondan hisobsiz askarlar bilan paydo bo‘ldi. Hind rojalari amirlarining rojalardan podshoh hazratlariga mulozamat qilganlarning hammasi podshohdan bo‘yin tovlab Ranoga qo‘shildilar...Podshoh askarlari orasida hayronlik paydo bo‘ldi, ko‘p parokandalik va qo‘rquv boshlanib, ular umidsizlikka tushib qoldilar. Podshoh askarlarining bu ahvolini ko‘rib, chuqur fikr qildilar. Dushman yaqinlashganda, u kishining muborak xotirlariga shu keldiki, hamma amirlar, xonlar va sultonlar, katta va kichik; baland va past qochib ketgan kishilar hamda bo‘yin tovlagan kishilardan tashqari hamma kelganlar bir joyga to‘plansinlar, deb buyurdilar. Hammalari yig‘ilib keldilar. Podshoh ularga qarab: “Shuni esingizdan chiqarmangki, vatanimiz va shahrimizdan bizni necha oylik yo‘l ajratib turibdi. Xudo u kundan asrasin, agar askarlarimiz bu jangda yengilsa, Xudo bizni himoya qilsin, biz qayerlarga qolib ketamiz? Ish ajnabiylar va begonalar qo‘liga qolib ketadi. Ahvol shunday ekan, ikki yo‘ldan birini tanlab olishimiz kerak. Agar dushmanni o‘ldirsak, g‘ozi bo‘lamiz, agar o‘ldirilsak shahid bo‘lamiz. Shu har ikkala taqdir biznikidir. Bizning ulug‘ darajamiz va martabamizdir” dedilar”.

Bu gaplarni hamma bir ovozdan qabul qildi. Podshoh, “Xudo xoxlasa, to jonu tanimizda oxirgi nafasimiz qolguncha urishamiz, jon fidolikda va qon sochilishda o‘zimizni ayamaymiz, dedilar”[3,123-b].

Xullas, Zahiriddin Muhammad Bobur bugungi yoshlarga barcha tomonlama o‘rnak bo‘la oladigan shoh, shoir va sarkardadir.

REFERENCES

1. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov “Vatan tarixi” 1-kitob. “Sharq” nashriyoti. 2010.344-bet.
2. G’.Sotimov “ O‘rta Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri”, T.: 2009.64-bet.
3. G’.N.Nizomiddinov, “Buyuk boburiylar tarixi” T.: 2012.252-bet.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur , “Boburnoma”, Shams Porso tarjiması.T.:2015.231-bet.
5. X.Sultonov, “Boburiynoma” T.:1986.231-bet.